O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIGA TAVSIYA ETILADIGAN TIBBIY TERMINLAR SEMANTIZATSIYASI

Buronova Xolida Toshtemirovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
xolly8987@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek tili izohli lug‘atlariga tavsiya etiladigan tibbiy terminlarning semantizatsiyasi va leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tibbiy terminlarning semantik guruhlanishi, umumiste’mol so‘zlarining terminlashuvi, polisemiya hamda ularning izohli lug‘atlarda berilish masalalari yoritiladi. Shuningdek, terminlarni sohaga oidlik belgisi bilan ajratish, aniq definitsiya asosida izohlash va “termin yadro” hamda “termin periferiyasi”ni farqlash zarurligi asoslanadi. Tibbiy terminlar semantizatsiyasini tizimlilik, me’yoriylik, aniqlik va qulaylik mezonlari asosida takomillashtirish bo‘yicha xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminlar, semantizatsiya, tibbiy terminologiya, O‘zbek tili izohli lug‘ati, leksik-semantik maydon, terminlashuv, transterminlashuv, polisemiya, semantik ko‘chim, termin yadro, termin periferiyasi, definitsiya, pometalash, morfemik motivatsiya, lug‘atshunoslik.

Ma’lumki, lug‘atlardagi leksemalar muayyan leksik maydonning bir qismi hisoblanadi. Muayyan semantik mohiyatiga ko‘ra, bir qancha leksemalar bir paradigamaga birlashadi. Shuningdek, tibbiy terminlar ham bundan mustasno emas. Masalan, *artrit, astma, arterioskleroz, bavosir, buqoq, taxikardiya* kabilar “kasallik nomlari” paradigmasida; *artrolog, bakteriolog, kardiolog, okulist, travmatolog* kabilar “muayyan kasallikni davolovchi mutaxassis” paradigmasida; *artroskopiya, biosintez* kabilar “muayyan kasallikka tashxis qo‘yish va davolash jarayoni” paradigmasida birlashadi. Demak, tibbiyotga aloqador terminlar semantik ifodasiga ko‘ra muayyan paradigmalar asosida guruhlanadi. O‘zbek tilshunosligida terminlarning semantik tavsifi va tadqiqi xususida ko‘plab ilmiy yangiliklar amalga oshirilgan. Xususan, so‘zning semantik maydoni, ifoda ko‘lami xususida S.Akobirov, A.Hojiyev, N.Mamatov, R.Doniyorov, H.Jamolxonov, O.Ramazonov, A.Madvaliyev, A.Husanov, M.Abdiyev, S.Azizov, H.Yodgorov, Z.Mirahmedova, A.Husanov, I.Qo‘chqortoyev, A.Nurmonov, H.Ne’matov, R.Rasulov, E.Begmatov, A.Sobirov, Sh.Iskandarova kabi olimlarning dissertatsiya va monografiyalarida semantik usul bilan termin hosil bo‘lishi xususida muayyan fikrlar bildirilgan. Kasb-hunar terminlarining semantik usul bilan hosil bo‘lishi haqida S.Ibrohimov, funksional-semantik maydonlarning morfemik xususiyatlari haqida T.Mirzaqulov, sintaktik sathning to‘siqsizlik kategoriyasi yuzasidan maydon nazariyasi M.Abduvaliyev tomonidan tadqiq etilgan.[1] Ushbu ishlarda so‘zlar ma’noviy jihatdan tadqiq etilgan va ularning valentlik imkoniyatlari misollar vositasida ochib berilgan. O‘TILda va maxsus sohaviy lug‘atlarda terminlarning berilishi o‘ziga xos. Ularning ayrimlari izohtalabdir. Xususan, terminologik tizim me’yoriga ko‘ra atamalar ot va otlashgan so‘zlar orqali taqdim etilishi lozim. Ammo lug‘atlarda yuqoridagilardan tashqari so‘z turkumlarida ham terminlar taqdim etilgan. Shuningdek, olim G‘.M.Ismailovning tadqiqotida terminlarning turli sohalarda

birdek qo‘llanishi transterminlashuv natijasidir, degan xulosa mavjud. Tadqiqotchi terminlarning transterminlashuviga sotsilogik omillar ham sabab bo‘lishi mumkinligini asosladi. Olim terminologik tizim o‘z-o‘zidan boyib, kengayib borishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu quyidagi uch bosqich asosida amalga oshadi:

1. Oddiy so‘zdan termin hosil bo‘lishi: og‘iz (botanika), kalit (musiqa) va h.k.
2. Terminlarning oddiy leksikaga aylanishi: telefon, vazn va b.
3. Terminologiyaning o‘z hisobiga boyishi: chechak, gul va h.k. [2]

Terminlarning semantik shakllanishi ko‘chimlar: metafora, metanimiya, vazifadoshlik kabilarga aloqador sanaladi. Masalan, *ko‘richak* aslida bir tomoni yopiq bo‘lgan ichak qismdan iborat bo‘lganligi uchun ham shunday nomlanadi. Bugungi kunda esa ushbu so‘z kasallik nomi sifatida e’tirof etiladi. Ammo bu kasallik nomi, aslida, appentitsit bo‘lib, u ko‘richakdan chuvalchangsimon o‘sib chiqqan appendiks nomidan kelib chiqqan.[3] Ammo xalq orasida ushbu o‘simtaning yallig‘lanishi appenditsit nomi bilan keng tarqalgan. O‘TILda ham shu masalaga oydinlik kiritilmagan.

O‘TILda quyidagi so‘zlar umumiste’moldagi birlik sifatida berilgan:

OG‘IZ 1. Ikki jag‘ o‘rtasidagi ovqatlanish, so‘zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo‘shliq. **2.** Ikki lab va ularning bir-biriga tegib turgan joyi, atrofi. *[O‘TIL III, 588]*

MIYA 1. Odam va ba’zi hayvonlar nerv sistemasining markaziy bo‘limi; odamda – tafakkur a’zosi. **2.** Odam va umurtqali hayvonlar suyagi bo‘shliqlarini to‘ldirib turuvchi to‘qima (ko‘mik). *[O‘TIL III, 209]*

MIYA II *bot.* Burchoqdoshlar (dukkakdoshlar) oilasiga mansub, cho‘l, adir, tog‘da o‘sadigan ko‘p yillik o‘t. *[O‘TIL III, 209]*

TOMOQ 1. Bo‘yinning engak osti (tumshuq osti) qismi. **2.** *anat.* Qizilo‘ngach bilan kekirdak boshlanadigan yer; bo‘g‘iz. *[O‘TIL V, 337]*

QABZIYAT [a. – qisilish; to‘xtab qolish; ich qotish] **1** Ich qotishi, uzoq vaqt ich kelmasligi yoki qiyinchilik bilan kelishi. *[O‘TIL IV, 10]*

TOS SUYAGI 1. Son suyaklariga tayangan va umurtqa suyagini tutib turadigan beldan past kamar suyagi. *[O‘TIL V, 361]*

TANOSIL 1. [a. urchish, ko‘payish, bolalash] Biologik jinsga oid, jinsiy. *[O‘TIL V, 75]*

TITRAMA titroq. *[O‘TIL V, 301]*

MARAZ 1. [a. kasallik] Yiring olgan, fasod bog‘lagan yara. *[O‘TIL III, 107]*

MIGREN 1. [f. migraine < *yun.* Mikrania – bosh suyagining yarmi] Odatda boshning yarmida qattiq tutib og‘riydigan nerv kasalligi.*[O‘TIL III, 188]*

Yuqorida berilgan terminlar asli umumiste’moldagi so‘zlar bo‘lib, ular tibbiyotda termin sifatida qo‘llanadi. O‘TILda ular pometalarsiz berilgan. *(pometa – lug‘atda berilgan leksemaning sohaviy aloqadorligini ifodalaydigan belgisi: tib., huq., anat.)* Umumiste’moldagi so‘z sifatida *og‘iz, miya, tomoq, qabziyat, tos suyagi, tanosil, titrama, maraz* kabi so‘zlarni pometasiz holda taqdim etilgan. Ammo ularning tavsifi tibbiyotga bog‘liq, ya’ni ular meditsinaga oid terminlar hisoblanadi. Masalan, *miya – odam va ba’zi hayvonlar nerv sistemasining markaziy bo‘limi;* Ular umumiste’moldagi leksema bo‘lishi bilan bir qatorda tibbiy atama

sifatida ham izohlangani bois meditsinaga aloqador atama sifatida ularga *tib.* pometasi berilishi kerak. Bundan tashqari, yuqoridagi so‘zlar A.Qosimovning “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

OG‘IZ I – ikki lab bilan ikki jag‘ oralig‘i; og‘iz bo‘shlig‘ining old yorig‘i; og‘iz bo‘shlig‘ining old “og‘zi”.

OG‘IZ II – organizmdagi ichi bo‘sh yoki ichi bo‘lgan, ammo ichi to‘la bo‘ladigan tuzilma va a’zolarga kirish yoki ulardan chiqish bo‘sag‘asi.

Ushbu sohaviy lug‘atda *og‘iz* termin sifatida izohlangan va unga aloqador bo‘lgan *og‘iz bo‘shlig‘i, og‘iz yorig‘i, og‘iz sohasi, oshqozonning og‘zi* kabi birikmalarga ham alohida tavsif berigan. Bu polisemiya hodisasi bo‘lib, bu masalada olimlarning turlicha qarashlari mavjud. Masalan, leksikologiya muammolari ko‘rib chiqilgan har qanday ishda quyidagi formulalarni topish mumkin: nom sifatida so‘zlar bir narsadan ikkinchisiga yoki bu narsaning har qanday belgisiga yoki uning qismiga osonlikcha o‘tishi mumkin”.[4] Demak, terminlar polisemantik xusisyatga ham ega bo‘lishi mumkin. Ular shakliy, vazifaviy, joylashuvga aloqador o‘xshashliklarni yuzaga keltirgani uchun ham o‘z ichida muayyan ma’nolarni hosil qila oladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, polisemiya hodisasi orqali so‘zlar terminlashuvini kuzatish mumkin ekan. Shu nuqtai nazardan, O‘TIL uchun tibbiy terminlar semantizatsiyasida “termin yadro” va “termin periferiyasi” farqini qat’iy belgilash zarur. “Yadro” – umumxalq nutqida faol, tushunilishi zarur bo‘lgan atamalar (masalan, *allergiya, qabziyat, migren, o‘sma*). “Periferiya” esa tor mutaxassislik birliklari bo‘lib, ular izohli lug‘atda haddan tashqari ko‘payib ketmasligi yoki kamida ixcham navigatsion usulda berilishi lozim. Aks holda, izohli lug‘at “sohaviy lug‘at funksiyasi”ga og‘ib, filologik vazifasini yo‘qota boshlaydi. Bundan tashqari, termin semantizatsiyasida morfemik motivatsiya (affiksoid elementlar: -it, -oma, anti-, mikro- va b.) izohini me’yorlashtirish ham muhim: izohli lug‘atda morfemik ochim to‘la ensiklopedik tus olmasligi kerak, lekin kamida terminning “tuzilish orqali anglashiladigan” semantik signali (masalan, -it = yallig‘lanish; -oma = o‘sma) bir xil shaklda qayd etilishi maqsadga muvofiq. Bu, o‘z navbatida, lug‘at foydalanuvchisining terminlarni “tizimli” qabul qilishiga yordam beradi va terminlarning xotirada mustahkamlanishini tezlashtiradi.

Olib borilgan kuzatuvlar tibbiy terminlarning O‘TILdagi semantizatsiyasi, avvalo, umumiy filologik lug‘at va maxsus sohaviy lug‘at vazifalarini farqlashga tayanishi lozimligini ko‘rsatdi. O‘TILda tibbiy terminlar: (1) sohaga oidlik pometasi bilan aniq belgilanishi, (2) minimal-yetarli definitsiya asosida izohlanishi, (3) havola va sinonimiya orqali navigatsion tartibda boshqarilishi zarur. Umumiste’mol so‘zlarning tibbiy terminlashgan ma’nolari (og‘iz, miya, tomoq, qabziyat va b.) izoh berilgan taqdirda, ularning tibbiyotga aloqadorligi “tib.” belgisi bilan ko‘rsatilishi lug‘atdan foydalanish qulayligini oshiradi. Shuningdek, bir semantik uyaga mansub hosilalarning (mikrobiologiya qatori) izohli lug‘atda haddan tashqari ko‘paytirilishi filologik lug‘atning ixchamlik va normativlik talabiga zid keladi.

Demak, O‘TILga tavsiya etiladigan tibbiy terminlar semantizatsiyasi tizimlilik (paradigma–sintagma–ierarxiya), me’yoriylik (pometalash), aniqlik (definitsiya yadrosi) va qulaylik (havolalash) mezonlari asosida takomillashtirilsa,

izohli lug‘atning normativ qiymati ortadi, tibbiy terminlarning ommaviy idrok etilishi yengillashadi hamda terminologik madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. 4-сон. – 62 б
2. Ismailov G‘.M. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi: Filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 8 b.
3. Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2003. J. 1. – 126 b.
4. G‘afforov N.N. Terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari // Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal, June 2022. Volume 3. Issue 2 / ISSN 2181-063X. URL: http://oac.dsmi-qf.uz

USMON AZIM SHE’RIYATIDA FONOSEMANTIK IFODALAR VA POETIK TOVUSH UYG‘UNLIGI

f.f.f.d. (PhD), dotsent Ibragimov Xayrulla Hamdamovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
xayrulla6266@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Usmon Azim she’riyatida fonosemantik ifodalar va poetik tovush uyg‘unligining lingvopoetik tabiati tahlil qilinadi. Shoir idiolektida tovush va ma’no munosabati, unli va undosh fonemalarning ritmik takrori, alliteratsiya va assonans hodisalarining poetik mazmunni shakllantirishdagi o‘rni okkazional birliklar misolida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Usmon Azim, fonosemantika, poetik tovush uyg‘unligi, okkazionalizm, individual-mualliflik yasalmasi, idiolekt, alliteratsiya, assonans, tovush va ma’no, fonetik simvolizm, derivatsion model, lingvopoetika, poetik makon, emotsional ekspressivlik.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining lisoniy-estetik taraqqiyotida badiiy ma’no nafaqat leksik va sintaktik birliklar orqali, balki tovush tizimining ichki imkoniyatlari hamda fonosemantik mutanosiblik vositasida ham teran shakllanishi kuzatiladi. Badiiy nutqda muayyan unli va undosh tovushlarning ongli ravishda tanlanishi, ularning ritmik takrorlanishi hamda o‘zaro uyg‘un joylashuvi semantik jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat asar mazmunining hissiy-estetik qatlamini sezilarli darajada chuqurlashtirib, kitobxon idrokiga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Shu nuqtayi nazardan, tovush va ma’no o‘rtasidagi uzviy munosabatni o‘rganuvchi lingvopoetik yo‘nalish – fonosemantika bugungi adabiy tahlillar hamda matnshunoslik tadqiqotlari uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Tovushning ma’no tashuvchi va yangi tushuncha shakllantiruvchi qudrati aynan lirik matn doirasida o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tariladi.

Usmon Azim ijodi mazkur yo‘nalish tadqiqi uchun g‘oyat qulay, pishiq va boy lisoniy manba sanaladi. Shoir she’riyatida tovushlar shunchaki tasodifiy akustik vosita yoki quruq qofiya talabi emas, balki muallifning badiiy niyatini, ichki ruhiy